

TASAVVUFCHI SO'FI OLLOYOR "SABOTUL OJIZIN" ASARIDA DINIY-DUNYOVIY TERMINOLOGIYANING POETIK O'ZIGA XOSLIGI

Sobirboyeva Madina Baxtiyor qizi

Farg'ona davlat universiteti

Filologiya fakulteti o'zbek tili yo'nalishi

3-kurs 23.86-guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tasavvuf adabiyotining yirik namoyandasi So'fi Olloyorning "Sabotul ojizin" asarida qo'llangan diniy va dunyoviy terminologiya poetik jihatdan tahlil qilinadi. Asardagi islomiy tushunchalar, tasavvufiy istilohlar, axloqiy-didaktik atamalar hamda dunyoviy ma'no doiralariga mansub leksik birliklarning semantik xususiyatlari yoritiladi. Shuningdek, muallifning terminlardan foydalanish maqsadi, ularning obraz yaratishdagi o'rni, badiiy-falsafiy mazmunni kuchaytirishdagi funksional vazifasi ilmiy nuqtai nazardan tahlil etiladi. Tadqiqot davomida So'fi Olloyor tilining poetik qatlamlari, terminologik birliklarning uslubiy o'ziga xosligi va asardagi didaktik g'oyalar bilan bog'liqligi aniqlanadi. Maqola diniy-dunyoviy atamalarning tasavvufiy tafakkur bilan uyg'unlashuvi jarayonini ko'rsatib, "Sabotul ojizin" asarining leksik-semantik boyligini ochib berishga xizmat qiladi.

Abstract: This article analyzes the religious and secular terminology used in the work of Sufi Olloyor, a major representative of Sufi literature, "Sabotul ojizin". The semantic features of the lexical units belonging to the Islamic concepts, mystical terms, moral-didactic terms, and secular meaning circles in the work are highlighted. Also, the author's purpose in using the terms, their role in creating an image, and their functional role in enhancing the artistic and philosophical content are analyzed from a scientific point of view. During the research, the poetic layers of Sufi Olloyor's language, the stylistic uniqueness of the terminological units, and their connection with the didactic ideas in the work are determined. The article serves to reveal the lexical and semantic richness of the work "Sabotul ojizin" by showing the process of combining religious and secular terms with mystical thinking.

Аннотация: В данной статье анализируется религиозная и светская терминология, использованная в произведении суфия Оллоёра, крупнейшего представителя суфийской литературы, “Саботул оджизин”. Выделяются семантические особенности лексических единиц, относящихся к исламским понятиям, мистическим терминам, нравственно-дидактическим терминам и светским смысловым кругам в произведении. Также с научной точки зрения анализируются авторская цель использования терминов, их роль в создании образа и функциональная роль в усилении художественно-философского содержания. В ходе исследования определяются поэтические пласты языка суфия Оллоёра, стилистическое своеобразие терминологических единиц и их связь с дидактическими идеями в произведении. Статья призвана раскрыть лексико-семантическое богатство произведения «Саботул оджизин», показывая процесс соединения религиозных и светских терминов с мистическим мышлением.

Kalit so‘zlar: Allohning sifatlari, tasavvufiy so‘zlar, mushtoq, kalim, iroda, basar, sam’, iymon, asdaq, munojot, arsh, lavh, iqbol, idbor, tama‘, xotam, Jorulloh, Abu lahab, tajarrud, dev, arsh, sirot, iymon.

Keywords: Attributes of Allah, mystical words, mustaq, kalim, iraad, basar, sam', iman, asdaq, munoajat, arsh, lawh, iqbal, idbar, tama', khatam, Jorullah, Abu Lahab, tajarrud, dev, arsh, sirat, iman.

Ключевые слова: Атрибуты Аллаха, мистические слова, мустак, калим, ирад, басар, сам, иман, асдак, муноаджат, арш, лох, икбал, идбар, тама, хатам, Джорулла, Абу Лахаб, таджарруд, дев, арш, сират, иман.

“Sabotul ojizin” asari so‘zlarning qisqa va lo‘ndaligi hamda ko‘plab ma’nolarga dalolat qilishi bilan ajralib turadi. Asarda ahli sunna val jamoaning e’tiqodiy qarashlari o‘zbek tilida nazmiy uslubda bayon etilgan. Shu sababli dalillar keltirilmasdan ulardan kelib chiqqan xulosalar nazmga terilgan. Bu haqida muallifning o‘zi quyidagicha yozgan:

Aqiyda soʻzlarin qildim isbot

Anga qoʻydim “Sabotul ojiziyn” ot.

Yaʼni ushbu kitobda aqoid masalalarini turkiy oʻzbek tilida bayon qildim va unga “Sabotul ojiziyn”(ojizlar matonati) deb nom qoʻydim.

Soʻfi Olloyorning “Sabotul ojizin” asari oʻzbek mumtoz adabiyotida diniy-didaktik mazmunni badiiy tasvir vositalari bilan uygʻunlashtirgan nodir manbalardan biri boʻlib, unda qoʻllangan diniy va dunyoviy terminologiya muallifning tasavvufiy dunyoqarashi hamda poetik mahoratini yaqqol namoyon etadi. Soʻfi Olloyor asarida ismlar, sifatlar, diniy va dunyoviy atamalar mazmunini ochib berilgan: Soʻfi Olloyor Olloh taoloning subutiy sifatleri sakkizta ekanini aytadi:

Subutidur aning sakkiz sifoti

Sifat zoti emas, na gʻayri zoti.

Hayotu, ilmu, qudrat ham basar, samʼ,

Iroda va kalom, takvindur, ey shamʼ.

Olloh taoloning Zotida sobit boʻlgan sakkizta sifati bor. Lekin bu sifatlar Ollohning Zoti emas, shuningdek, Zotidan tashqari ham emas. Ular: **Hayot, Ilm, Qudrat, Basar, Samʼ, Kalom, Iroda, Takvin**

Qudrat sifatini haqida soʻz borganda yad, aimma lafzlari ham tilga olinadi.

Kalomi haqdakim “yad” ayladi yod

Aning bir vasfidur, ey odamizod.

Ey Odam farzandi, Olloh taoloning baʼzi oyatlarda “Yad” — qoʻl lafzini yod etgani bu Ollohning bir vasfidir.

Aimma bildi Qur'on ma'nisin tuz,

Ko'ngilni qo'ytag'il, san har qayu yuz!

Yuqorida aytilganidek, aimma, ya'ni to'g'ri yo'ldagi imomlar Qur'on ma'nosini buzmasdan, to'g'ri tushunib, to'g'ri yetkazdilar. Sen ham ularga ergash, ko'ngilni har tarafga qo'yib yuborma! Matndagi "aimma" lafzi "imom" so'zining ko'plik shaklidir. "Imom" so'zining lug'aviy ma'nosi — ergashiladigan, peshqadam kishi. Qur'oni karimda payg'ambarlarga nisbatan ham "aimma" so'zi qo'llangan: "Yana ularni Bizning amrimiz bilan (kishilarni Haq Yo'lga) hidoyat etadigan peshvolar qildik" (Anbiyo surasi, 73). 4-sifat bo'lgan Basar so'zining ma'nosi — ko'rmoq, 5-sifat bo'lgan Sam' so'zining ma'nosi — eshitmoq.

7-sifat bo'lgan Iroda so'zining ma'nosi — xohish, istak. Istilohda — "Oллоhning xohishi" ma'nosini bildiradi. 8-sifat bo'lgan Takvin ma'nosi paydo etishdir.

Muhammad alayhissalomning ham **sifatlari** beriladi va ma'nolari izohlanadi. Masalan, "Xotamul anbiyo" — "paygam'ambarlarning so'nggisi" degan sifati bor. Arabcha xotam so'zi uzuk, qoshiga muhr naqshlangan uzuk ma'nosida ham ishlatiladi. Yana bir sifati bo'lgan Asdaq so'zining ma'nosi eng rost so'zlaguvchidir.

Ism, laqablar ma'nosi ham izohlanadi. Payg'ambarimiz amakilari haqida so'z borar ekan, Abdul Uzo Rasuli akramga haddan tashqari aziyatlar yetkazgani uchun "Abu lahab" laqabini oladi. Bu so'z ma'nosi esa "jahannam olovining otasi" deya izohlanadi.

Qur'oni karimning Saf surasi 6-oyatida Iyso binni Maryamning shunday degani zikr qilinadi: "(Men)o'zimdanda oldingi Tavrotni tasdiqlaguvchi va o'zimdanda keyin keladigan Ahmad ismli bir Payg'ambar haqida xushxabar berguvchi bo'lgan holda (yuborildim)". Oyatlardagi Ahmad so'zi — Payg'ambarimizning ismi bo'lib, Muhammad so'zi bilan o'zakdoshdur, har ikkala so'zning o'zagi — hamd, ya'ni maqtamoq bo'lib, Ahmad — "Parvardigoriga ko'p va xo'p hamd (maqtov) aytguvchi" ma'nosini ifodalasa, Muhammad — "dunyo va Oxiratda maqtovga sazovor bo'lguvchi" degan mazmunda kelishi haqida ma'lumotlar keltiriladi.

Shiy'alar Abu Bakr va Umarga tuhmat qilib, haq yo'ldan, haqgo'ylar doirasidan chiqib ketganlari uchun ular rofiza nomini oladilar. Bu so'z ma'nosi — tarq qilib chiquvchi.

Hazrati Usmon Rasuli akramning ikkita — Ummu Qulsum va Ruqayya ismli qizlariga uylangani uchun zunnurayn degan nom oladi. Bu soʻz maʼnosi — ikki nur egasi.

Tasavvufiy atamalar va ularning maʼnolarini izohlash oʻrinlari asarda koʻp uchraydi. “Ani mushtoqi boʻlmoq” jumlasida maʼnosi yaratuvchiga qullik, bu — Unga yetishni qattiq xohlashdir. “Mushtoq” soʻzi oʻzagi “shavq” boʻlib, oʻzbek tilida qattiq xohish maʼnosini anglatadi. Hamd boʻlimida quyidagi bayt keltiriladi:

Kalim ilgindagi qutlugʻ asoe,

Gahe koʻfruk edi, gah ajdahoe.

Gʻaraz qutratnamoligʻ erdi, ey doʻst,

Vagarna erdi bir qad choʻyi bepoʻst.

Baytdagi “kalim” — gapiruvchi soʻzidan murod Muso alayhissalomdir deya izoh beriladi.

Iymon bayoni qismida iymon soʻzining lugʻaviy oʻzagi — ishonch, ishonchli boʻlish maʼnolarini ifodalasa-da, aqida ilmi istilohida bu soʻzga oʻzak maʼnolarini taqozo qiluvchi tushunchalarni batafsil izohlash bilan taʼrif beriladi. Shuning uchun aqidat matnlari sharxida “Iymon boʻlimi” alohida mavzuga ajratilib, istilohiy jihatdan taʼriflangan.

Oллоh taolaga, U Zotning paygʻambarlariga iymon keltirish, Paygʻambarimiz Muhammad alayhissalomning sahobalari bayonidan soʻng imomat mavzusi haqida soʻz boradi. Imomat atamasiga taʼrif berishdan avval “imom” soʻziga diqqat qaratiladi. Lugʻaviy maʼnosi — safning oldida turgan, ergashiladigan, peshqadam kishi.

Munojot qismida “sirlashmoq”, “qalbdan qilingan maxfiy suhbat” maʼnolaridagi munojot soʻzi, bandaning yaratuvchisi bilan munosabatiga nisbatan qoʻllanganda, Oллоh taolaga hojat talabida xolis duo qilishni anglatadi. Shunga koʻra, baʼzan munojot soʻzi duo maʼnosida ham ishlatiladi.

“Sirot” soʻzining lugʻaviy maʼnosi yoʻldir. “Sirot” soʻzi Oxirat olamiga tegishli voqealik sifatida qoʻllanganda odamlar bilan jannat orasini ajratib turuvchi, jahannam uzra choʻzilgan, qilichdan oʻtkir, qildan ingichka koʻprik tushiniladi.

“Shafolat” — manfaat yetkazish yoki zararni dafʼ qilish maqsadida oʻrtadan turib vosita boʻlish maʼnosini anglatadi.

“Arsh” soʻzining maʼnosi — taxt. Manbalarda keltirilishicha, Ollohning arshi deyilganda bashar zoti uchun faqat nomigina maʼlum cheksiz joy tushuniladi.

“Dev” soʻzi “Sabotul ojizin” sharxlarining barchasida shayton deb izohlangan. Fors tilining izohli lugʻatlarida ham dev deganda shayton, jinlarning bir turi tushunilishi aytilgan.

“Tajarrud” soʻzining lugʻaviy maʼnosi — yalangʻochlanish, poʻstni sidirib tushirish boʻlib, maʼrifiy natnlarda “tajarrud” deyilar ekan, dunyo xohish-istaklaridan ozod boʻlish tushuniladi.

Tahlillar shuni koʻrsatadiki, “Sabotul ojizin” asarida Allohning sifatlarini ifodalovchi iroda, basar, samʼ kabi ilohiy atamalar tasavvufiy tafakkurning asosiy ustunlari sifatida qoʻllanib, matnga ruhiy teranlik baxsh etadi. Asardagi iymon, asdaq, kalim, munojot kabi diniy tushunchalar esa nafaqat aqidaviy mazmunni mustahkamlaydi, balki oʻquvchini maʼnaviy poklanish sari yetaklovchi badiiy-didaktik vosita boʻlib xizmat qiladi. Muallif arsh, lavh, sirot singari esxatologik va ilohiy istilohlarni obrazli talqin orqali keng maʼno doirasiga ega poetik birlikka aylantiradi. Shuningdek, mushtoq, iqbol, idbor, tamaʼ, xotam, tajarrud kabi dunyoviy va axloqiy mazmunli soʻzlar insonning ruhiy holati, nafsiy kurashi va maʼnaviy kamolot bosqichlarini ifodalashda muhim oʻrin egallaydi. Dev obrazi esa tasavvufda nafsning moddiylashgan timsoli sifatida qoʻllanib, asarning axloqiy mazmuniga dinamik kuch bagʻishlaydi. Umuman olganda, asarda diniy va dunyoviy terminlar oʻzaro uygʻun semantik tizim hosil qilib, muallifning tasavvufiy dunyoqarashini, ruhiy tajribasini va tarbiyaviy maqsadini badiiylashtirishga xizmat qilgan. Shu bois “Sabotul ojizin”dagi terminologiya Soʻfi Olloyor poetikasining asosiy mazmuniy

qatlamini shakllantiruvchi yetakchi unsurlardan biri sifatida alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. So'fi Olloyor, Sabotul-ojizin — Toshkent: Mehnat, 1991.
2. Rahmonqul Orzubekov, o‘zbek adabiyoti tarixi, — Toshkent: O‘zbekiston Yozuvchilar Uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006.
3. So'fi Olloyor, Risolayi Aziza “Sabot ul-ojizin sharxi” — Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 2000.
4. So'fi Olloyor, Sabotul-ojizin sharxi, Ravoyihur Rayhon — Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2021.
5. <https://kh-davron.uz/kutubxona/islomiy-adabiyot/tasavvuf/sofi-olloyor-sabotul-ojiziyn.html>